

## QONUNIYLIKNI TA’MINLOVCHI MUSTAQIL ORGAN

Najmiddinova Sarvara Nodirbekovna

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida qonun ustuvorligini ta’minlashda sud hokimiyatining tutgan o‘rni, uning davlat hokimiyatining mustaqil tarmog‘i sifatidagi ahamiyati hamda sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, sud hokimiyatining konstitutsiyaviy asoslari, sud tizimining shakllanishi, sudyalarning mustaqilligining kafolatlari, sud organlarining vakolatlari, odil sudlovni amalga oshirish prinsiplari, Konstitutsiyaviy sud va Sudyalarning oliy kengashining faoliyati, mediatsiya instituti hamda elektron sud tizimining istiqbollari haqida batafsil fikr yuritiladi. Maqolada sud tizimida uchrayotgan ayrim muammolar, xususan, sudyalarning ortiqcha ish yuklamasi, ayrim qarorlar sifatida bilan bog‘liq masalalar, aholining huquqiy savodxonligi yetarli darajada emasligi kabi holatlar ham yoritilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

**Kalit so‘zlar:** qonun ustuvorligi, sud hokimiyati, odil sudlov, sud tizimi, mustaqillik, Konstitutsiya, inson huquqlari, demokratik davlat, mediatsiya, elektron sud, sud islohoti, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, sudya daxlsizligi.

**Kirish**

Har qanday demokratik va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri – jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash hamda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishdir. Qonun ustuvorligi mavjud bo‘lmagan davlatda adolat, tenglik va barqaror taraqqiyot haqida so‘z yuritish mushkul. Shu sababli ham mustaqil davlatlar taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri sifatida sud hokimiyatining mustaqilligiga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishganidan keyin mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlarning markazida inson manfaatlarini himoya qilish, uning sha’ni va qadr-qimmatini ta’minlash masalasi turadi. Chunki inson huquqlari oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan jamiyatdagina haqiqiy demokratik tamoyillar qaror topadi.

Huquqiy davlat barpo etishda sud hokimiyatining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Sud hokimiyati fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklaydi, jamiyatdagi nizolarni qonun asosida hal qiladi, davlat organlari va mansabdor shaxslarning noqonuniy harakatlari ustidan

nazoratni amalga oshiradi hamda qonun ustuvorligini ta'minlaydi. Shu jihatdan sud hokimiyati davlat hokimiyatining eng muhim va mas'uliyatli tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Sud hokimiyatining konstitutsiyaviy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasiga muvofiq, davlat hokimiyati tizimi hokimiyatlarning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi. Ushbu prinsip demokratik davlatlarning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Hokimiyatlarning bo‘linishi prinsipi davlat organlari o‘rtasida vakolatlarning muvozanatini ta'minlaydi hamda bir hokimiyat tarmog‘ining boshqasidan ustun kelib qolishining oldini oladi.

Sud hokimiyati davlat hokimiyatining mustaqil tarmog‘i sifatida faoliyat yuritadi. Sudlar faqat qonunga bo‘ysunadi va odil sudlovni amalga oshirishda har qanday tashqi aralashuvdan holi bo‘lishi kerak. Konstitutsiyaning sud hokimiyatiga oid normalarida sudlarning mustaqilligi, sudyalarning daxlsizligi, sud qarorlarining majburiyligi hamda odil sudlovning asosiy prinsiplari mustahkamlangan.

Sud hokimiyatining mustaqilligi fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishning eng muhim kafolatidir. Agar sudlar boshqa davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning ta'siri ostida faoliyat yuritsa, u holda adolatni ta'minlash mushkul bo‘ladi. Shu sababli sudlarning mustaqilligi demokratik huquqiy davlatning eng muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Sud hokimiyatining konstitutsiyaviy maqomi mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarning huquqiy asosini tashkil etadi. Xususan, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash maqsadida sudyalarni tayinlash tartibi takomillashtirildi, sudyalarning daxlsizlik kafolatlari mustahkamlandi hamda sud organlarining moddiy-texnik bazasi yaxshilandi.

Sud tizimining shakllanishi va rivojlanishi

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda sud-huquq tizimini isloh qilishga alohida e'tibor qaratildi. Sobiq totalitar tuzum davrida sud hokimiyati ko‘proq ma'muriy-buyruqbozlik tizimining bir qismi sifatida faoliyat yuritgan bo‘lsa, mustaqillikdan keyin sudlarning haqiqiy mustaqil organ sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni sud tizimining huquqiy asoslarini belgilab berdi. Mazkur qonunda sud tizimi, sudlarning vakolatlari, sudyalarni tayinlash tartibi, sudyalar huquq va majburiyatlari hamda sud faoliyatining asosiy prinsiplari mustahkamlangan.

Bugungi kunda mamlakatimiz sud tizimi Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, viloyat sudlari, tuman va shahar sudlari, iqtisodiy sudlar, ma'muriy sudlar hamda harbiy sudlardan iborat. Har bir sud organi o'z vakolati doirasida odil sudlovni amalga oshiradi.

Sud tizimidagi islohotlarning asosiy maqsadi fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, inson huquqlarini ishonchli himoya qilish hamda sud faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashdan iboratdir.

Keyingi yillarda sud tizimida "bir sud – bir instansiya" tamoyili joriy qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu tamoyil sud qarorlarini qayta ko'rib chiqishdagi ortiqcha bosqichlarni qisqartirib, ishlarni ko'rib chiqish muddatlarini tezlashtirishga xizmat qildi.

Sud hokimiyatining asosiy prinsiplari

Sud hokimiyati o'z faoliyatini bir qator muhim prinsiplarga asoslangan holda amalga oshiradi. Ushbu prinsiplar odil sudlovning qonuniy va adolatli amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Qonuniylik prinsipi

Sud faoliyatining eng muhim prinsipi qonuniylikdir. Sudlar ishlarni ko'rib chiqishda faqat Konstitutsiya va qonunlarga amal qiladi. Har qanday qaror qonun asosida qabul qilinishi lozim.

Mustaqillik prinsipi

Sudlar va sudyalar mustaqildir. Sudyalar faqat qonunga bo'ysunadi. Sudlarning faoliyatiga aralashish qonunga xilof hisoblanadi va javobgarlikka sabab bo'ladi.

Tenglik prinsipi

Sud oldida barcha tengdir. Irqi, millati, jinsi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi yoki mansabidan qat'i nazar barcha fuqarolar sud oldida teng huquqlarga ega.

Oshkoralik prinsipi

Sud majlislari odatda ochiq tarzda o'tkaziladi. Bu esa sud faoliyatining shaffofligini ta'minlaydi hamda fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Aybsizlik prezumpsiyasi

Shaxsning aybi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan isbotlanmaguncha u aybsiz hisoblanadi. Ushbu prinsip inson huquqlarini himoya qilishning muhim kafolati hisoblanadi.

Sudyalar mustaqilligi va daxlsizligi

Sudyalar mustaqilligi odil sudlovni ta'minlashning asosiy omillaridan biridir. Sudyalar ishlarni ko'rib chiqishda faqat qonunga asoslanadi va hech kimning ko'rsatmasiga bo'ysunmaydi.

Sudyalarning daxlsizligi ularni noqonuniy bosim va ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladi. Sudyani javobgarlikka tortish yoki hibsga olish uchun qonunda belgilangan maxsus tartib mavjud.

Mamlakatimizda sudyalar mustaqilligini ta’minlash maqsadida Sudyalar oliy kengashi faoliyat yuritadi. Mazkur organ sudyalarni tanlash, tavsiya etish, ularning malakasini oshirish va intizomiy javobgarligi masalalarini ko‘rib chiqadi.

Sudyalar mustaqilligi jamiyatda adolatni qaror toptirishda muhim o‘rin tutadi. Chunki faqat mustaqil sudyagina xolis va adolatli qaror qabul qila oladi.

Konstitutsiyaviy sudning o‘rni

Konstitutsiyaviy sud mamlakatimiz sud tizimida alohida o‘rin tutadi. Ushbu sud Konstitutsiyaning ustuvorligini ta’minlaydi hamda qonunlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshiradi.

Konstitutsiyaviy sudning asosiy vazifasi – Konstitutsiyani himoya qilish va davlat organlari faoliyatining Konstitutsiyaga mosligini nazorat qilishdir. Bu esa davlat hokimiyati organlari faoliyatida qonuniylikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaviy sud qarorlari barcha davlat organlari, tashkilotlar va fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi. Shu sababli mazkur sudning faoliyati huquqiy davlat barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sud-huquq tizimidagi islohotlar

So‘nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq tizimini isloh qilishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan farmon va qarorlar sud tizimining yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Xususan, “Harakatlar strategiyasi” va “Taraqqiyot strategiyasi” doirasida sud tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolarning odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirish hamda sudlarning mustaqilligini kuchaytirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilandi.

Sud-huquq tizimidagi islohotlarning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minlash;
- fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish;
- sud jarayonlarini soddalashtirish;
- sud tizimini raqamlashtirish;
- sud qarorlarining ijrosini ta’minlash;
- korrupsiyaga qarshi kurashish;
- sudyalar malakasini oshirish.

Mazkur islohotlar natijasida sudlarning ochiqligi va shaffofligi ortib, fuqarolarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanmoqda.

Mediatsiya institutining ahamiyati

Mediatsiya nizolarni sudgacha bo‘lgan bosqichda tinch yo‘l bilan hal qilish usullaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinishi ushbu institut rivojlanishiga katta turtki berdi.

Mediatsiya taraflarning o‘zaro kelishuv asosida nizoni hal qilishiga xizmat qiladi. Bu esa sudlar yuklamasini kamaytiradi, fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni yaxshilaydi hamda ortiqcha vaqt va xarajatlarning oldini oladi.

Bugungi kunda mediatsiya oilaviy, fuqarolik va iqtisodiy nizolarni hal qilishda keng qo‘llanilmoqda. Ushbu institutni oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Elektron sud tizimi va raqamlashtirish

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi sud tizimiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Hozirgi kunda sudlar faoliyatini raqamlashtirish odil sudlov samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Elektron sud tizimi orqali fuqarolar arizalarni onlayn yuborish, sud qarorlari bilan tanishish hamda sud jarayonlarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Elektron sud tizimining afzalliklari quyidagilardan iborat:

vaqt tejiladi;

ortiqcha qog‘ozbozlik kamayadi;

sud faoliyatining ochiqligi oshadi;

korrupsion holatlarning oldi olinadi;

chekka hududlardagi fuqarolar uchun qulaylik yaratiladi.

Raqamlashtirish sud tizimining zamonaviy va samarali faoliyat yuritishiga xizmat qilmoqda.

Sud tizimidagi mavjud muammolar

Sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, sudyalarning ish yuklamasi yuqoriligi ayrim hollarda qarorlar sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Ba‘zi fuqarolarning huquqiy savodxonligi yetarli emasligi sababli ular o‘z huquqlarini to‘liq bilmaydi. Bu esa turli huquqbuzarliklar va nizolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Shuningdek, ayrim hollarda sud qarorlarining ijrosini ta‘minlash bilan bog‘liq muammolar ham uchraydi. Sud qarori o‘z vaqtida ijro etilmasa, fuqarolarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchi pasayishi mumkin.

Sud tizimidagi korrupsion holatlarning oldini olish ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli sud tizimida ochiqlik va shaffoflikni yanada kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar

Sud tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Sudyalar sonini ko‘paytirish va ularning ish yuklamasini kamaytirish.

Sudyalar malakasini muntazam oshirib borish.

Elektron sud tizimini yanada rivojlantirish.

Aholining huquqiy madaniyatini oshirish.

Mediatsiya institutini keng targ‘ib qilish.

Sud qarorlarining ijrosini samarali nazorat qilish.

Sud tizimida korrupsiyaga qarshi qat‘iy kurash olib borish.

Yosh huquqshunoslarni sud tizimiga keng jalb etish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi sud tizimining yanada samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, sud hokimiyati qonun ustuvorligini ta‘minlovchi eng muhim mustaqil davlat organi hisoblanadi. Sud tizimi fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi, jamiyatda adolat va barqarorlikni ta‘minlaydi hamda davlat hokimiyati organlari faoliyatining qonuniyligini nazorat qiladi.

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar sud hokimiyatining mustaqilligini mustahkamlashga, fuqarolarning odil sudlovga bo‘lgan ishonchini oshirishga hamda inson huquqlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qilmoqda.

Kelgusida sud tizimini yanada takomillashtirish, sudlarning ochiqligi va shaffofligini kuchaytirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda aholining huquqiy madaniyatini oshirish orqali huquqiy demokratik davlat qurish yo‘lidagi islohotlar izchil davom ettiriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni.
5. Sh.Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi”. – Toshkent, 2021.
6. M.H.Rustamboyev, U.A.Tuxtasheva. “Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar”.
7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
8. <https://strategy.uz/>
9. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami.
10. Sud-huquq tizimiga oid ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.